



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 3-fevral

VII-17-14-8-0-K/26

Surxondaryo viloyati

Viloyat hududida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari tariflarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi "Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 95-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish hamda maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish maqsadida, qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari tariflarini o'zgartirish to'g'risidagi "Toza hudud" DM direktori E.Begimqulov hamda Termiz shahar "BIO TEXNO EKO" mas'ulyati cheklangan jamiyati direktori I.Rasulovlarning ma'ruzalari tinglanib, deputatlar tomonidan bildirilgan taklif fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari tariflarini o'zgartirish to'g'risida "Toza hudud" davlat muassasi direktori E.Begimqulov hamda Termiz shahar "BIO TEXNO EKO" mas'ulyati cheklangan jamiyati direktori I.Rasulovlarning ma'ruzalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 9-dekabrdagi 22-10-10/3836-son xati bilan bergan xulosasi hamda viloyat hokimligining 2025-yil 18-dekabrdagi 03-03/12432-sonli xatlari inobatga olinsin.

3. Viloyat hududida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmati uchun to'lovlar tariflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar:

barcha jismoniy va yuridik shaxslar mazkur qaror bilan belgilangan tariflar asosida chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmati uchun to'lovlarni belgilangan tartibda shartnoma asosida oyning o'ninchi sanasidan kechiktirmay amalga oshirish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lov iste'molchilar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida tuziladigan qonunda belgilangan tartibda shartnomalarga muvofiq bevosita xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga 100 (yuz) foiz to'lash asosida amalga oshirilishi qayd etilsin.

5. Viloyatdagi barcha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar:

aholi punktlarida joylashgan chiqindi to'plash shoxobchalari va konteynerlarni zamonaviy talablar asosida o'rgansin;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatli, o'z vaqtida va sanitariya qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirilishini ta'minlasin;

yuridik va jismoniy shaxslar bilan qonunda belgilangan tartibda shartnomalar imzolasin;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar va shartnomalardagi majburiyatlarga to'liq rioya etish uchun javobgar ekanligi belgilab qo'yilsin.

6. Barcha tuman (shahar) hokimliklariga:

viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasiga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to'lovlarni to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslarning haqqoniy hisobini yuritishga ko'maklashish;

Termiz shahar va tumanlar hududidagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga hududdagi jismoniy va yuridik shaxslar bilan qonunda belgilangan tartibda shartnomalar tuzishda amaliy yordam ko'rsatish;

aholi punktlari hududidan chiqindi tashishning reja-grafigini tasdiqlash hamda tasdiqlangan reja-grafik asosida chiqindilarni tashish xizmatlari amalga oshirilishini qat'iy nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.

7. Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (B.Urinov):

tuman (shahar) hokimliklari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib

ketish xizmatlari uchun majburiy to'lovlarni to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslarning haqqoniy hisobi yuritilishini ta'minlasin;

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to'lovlarni to'lash va hisobini yuritishning yagona elektron tizimi faoliyati uzluksizligini ta'minlasin;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash hamda shartnomada belgilangan tartib asosida olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to'lovlar 3 (uch) oy davomida to'lanmagan taqdirda, qarzdorlikni undirish bo'yicha qonunda belgilangan tartiblar asosida sudlarga da'vo arizalari kiritilishini ta'minlasin;

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlarini ko'rsatish haqidagi shartnomalar bo'yicha majburiyatlar xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirsin;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyati bo'yicha kelib tushgan ma'lumotlarni tahlil qilib, viloyat hokimligiga har chorakda axborot kiritish hamda xalq deputatlari viloyat Kengashiga har yarim yillik yakunida yozma axborot kiritish vazifalari yuklatilsin.

8. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2025-yil 29-yanvardagi "Viloyat hududida maishiy chiqindilarni to'plash hamda olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflarini qayta ko'rib chiqish va ma'qullash to'g'risida" VII-3-11-8-0-K/25-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), "Surxon tongi" va "Заря Цырхана" gazetalari tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingandan keyin o'n besh kun o'tgach kuchga kiradi.

Kengash raisi



**CHORIYEV
ABDURAIM
RAVSHANOVICH**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 3-fevraldagi
VII-17-14-8-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Viloyat hududida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib
chiqib ketish xizmatlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar
TARIFLARI**

T/r	Tuman (shahar) nomi	To'lov tariflari		
		Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish uchun		Suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish 1 (bir) m ³ uchun (QQS bilan) (so'm)
		Aholiga 1 (bir) kishiga 1 (bir) oy uchun (QQS bilan) (so'm)	Yuridik shaxslarga 1 (bir) m ³ uchun (QQS bilan) (so'm)	
1	Angor tumani	8 960	179 312	179 312
2	Boysun tumani	8 960	179 312	179 312
3	Bandixon tumani	8 960	179 312	179 312
4	Denov tumani	8 960	179 312	179 312
5	Jarqo'rg'on tumani	8 960	179 312	179 312
6	Qumqo'rg'on tumani	8 960	179 312	179 312
7	Qiziriq tumani	8 960	179 312	179 312
8	Muzrabot tumani	8 960	179 312	179 312
9	Oltinsoy tumani	8 960	179 312	179 312
10	Sariosiyo tumani	8 960	179 312	179 312
11	Termiz tumani	8 960	179 312	179 312
12	Termiz shahar	8 960	179 312	179 312
13	Uzun tumani	8 960	179 312	179 312
14	Sherobod tumani	8 960	179 312	179 312
15	Sho'rchi tumani	8 960	179 312	179 312